




## 2020- yilning yanvar-avgust oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Farg'ona viloyatida jami **3 129,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **97,4 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda













2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 125 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 328 taga oshdi.











Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **113,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **11,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **108,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,3 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.09.2019- yil	01.09.2020- yil	
	<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2797</b>	<b>3125</b>	<b>111,7</b>
	<i>shaharlar:</i>			
	<b>Farg'ona</b>	<b>750</b>	<b>829</b>	<b>110,5</b>
	<b>Qo'qon</b>	<b>289</b>	<b>318</b>	<b>110,0</b>
	<b>Quvasoy</b>	<b>101</b>	<b>111</b>	<b>109,9</b>
	<b>Marg'ilon</b>	<b>266</b>	<b>314</b>	<b>118,0</b>
	<i>tumanlar:</i>			
	<b>Oltiariq</b>	<b>89</b>	<b>99</b>	<b>111,2</b>
	<b>Qo'shtepa</b>	<b>97</b>	<b>103</b>	<b>106,2</b>
	<b>Bag'dod</b>	<b>143</b>	<b>158</b>	<b>110,5</b>
	<b>Buvayda</b>	<b>115</b>	<b>123</b>	<b>107,0</b>
	<b>Beshariq</b>	<b>74</b>	<b>82</b>	<b>110,8</b>
	<b>Quva</b>	<b>134</b>	<b>136</b>	<b>101,5</b>
	<b>Uchko'prik</b>	<b>154</b>	<b>169</b>	<b>109,7</b>

	Rishton	65	68	104,6
	So'x	32	41	128,1
	Toshloq	117	132	112,8
	O'zbekiston	69	81	117,4
	Farg'ona	68	95	139,7
	Dang'ara	116	125	107,8
	Furqat	60	70	116,7
	Yozyovon	58	71	122,4


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.09.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari *Farg'ona sh. (26,5 %)*, *Qo'qon shaxri (10,2 %)* va *Marg'ilon (10,0 %)* shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **277,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **84,6 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,3 %** punktga kamayib, **8,8 %** ni tashkil etdi.

## 2020- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




■ ulushi, % da    ■ o'sish sur'ati, % da

**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi *Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,9 % i yoki 2019-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 49,2 %)*, *Quvasoy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 29,5 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 marta)*, va *Qo'qon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 23,7 % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,2 % )* ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,8 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **101,7 %** ni tashkil etgan holda **2 127,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,2 %** ni tashkil etdi yoki **724,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **91,1 %** ni tashkil etdi

Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **108,0** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 021,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,5 %** va **96,5 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-avgust

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 58,2 % i yoki **1 821,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

58,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **163,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,0 % ni tashkil etdi

9,0 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 023,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.

56,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **634,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,8 % ni tashkil etdi.

34,8 %






**2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
<b>Farg'ona viloyati*</b>	<b>3 129,3</b>	<b>97,4</b>	<b>1 821,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	871,1	121,2	380,0
Qo'qon	234,4	86,0	122,3
Quvasoy	153,3	48,2	140,0
Marg'ilon	405,9	143,9	352,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	149,7	118,5	32,8
Qo'shtepa	140,9	101,8	50,8
Bag'dod	186,4	153,2	166,3
Buvayda	88,6	124,7	45,5
Beshariq	59,2	48,9	44,9
Quva	133,0	81,6	100,1
Uchko'prik	78,2	65,3	23,3
Rishton	33,7	54,8	21,7
So'x	69,1	147,9	3,9
Toshloq	60,6	102,6	43,9
O'zbekiston	70,2	103,7	49,1
Farg'ona	56,6	90,8	22,2
Dang'ara	157,1	69,9	132,7
Furqat	98,4	104,8	65,5
Yozyovon	83,0	57,2	24,3

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,0 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ko'payib, **65,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019-yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga kamayib, **29,5 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **29,1 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **70,6 %** (**9,5 %** punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,3 %** (**4,3 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **12,4 %** punktga kamaydi va **15,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,5 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **12,4 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (871,1 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (405,9 mlrd. so'm), Bag'dod (186,4 mlrd. so'm), Oltiariq (149,7 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Tel.: 73 249-87-26**